

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMOV AKBAR ASKAROVICH

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAXSUS MASHQLAR
ORQALI HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Rustamov Akbar Askarovich

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus mashqlar orqali harakat faolligini
oshirish uslubiyatini takomillashtirish3

Рустамов Акбар Аскарлович

Совершенствование методики повышения двигательной активности детей
дошкольного возраста посредством специальных упражнений25

Rustamov Akbar Askarovich

Improving the method of increasing the movement activity of preschool children
through special exercises49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMOV AKBAR ASKAROVICH

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAXSUS MASHQLAR
ORQALI HARAkat FAOLLIGINI OSHIRISH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8889 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.buxdu.uz hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidov Izzatillo Istamovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Rasmiy opponentlar:

Inoyatov Abdullo Shodiyevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Haydarov Baxtiyor Tojiyevich

Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" 10 soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (439 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "6" 10 kuni tarqatildi.

(2025 yil "18" 10 dagi 006 raqamli reestr bayonnomasi).



M.J.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E.Sattorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kengashi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

R.S.Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilari harakat faolligini oshirish va ularning salomatlik darajasini yaxshilash, ta'limining eng quyi bosqichidan boshlab zamonaviy usullar orqali tashkil qilish bugungi kunda eng muhim va dolzarb vazifa sifatida qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimida bolalarga jamiyatda o'z pozitsiyasini aniqlashda shaxs sifatida o'zlarini ko'rsatishi uchun zamonaviy innovatsion vositalardan foydalanish zarurati paydo bo'lmoqda. Bunday yondashuvning maqsadi maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bo'yicha shaxsning harakat faolligini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitlar bilan ta'minlashdan iborat.

Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning faol hayot kechirishini ta'minlash, ularni virtual olamdan ijtimoiy hayotga qiziqtirish, yosh avlodni jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan sog'lom, barkamol shaxslar sifatida rivojlantirish, jismoniy imkoniyatlariga qarab sport turlariga yo'naltirish kabi masalalar muhim o'rin tutmoqda. Ayrim ilmiy tadqiqotlarning natijalari ijobiy bo'lishiga qaramay, bola shaxsining jismoniy rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar mavjudligi qayd etilmoqda. Bunga faol harakatni rag'batlantirish, kam harakatsizlikni bartaraf etish, ota-onalarning e'tiborsizligi va bolalarni sog'lomlashtirish mezonlarining yetarlicha yoritilmasligi sababli bolalarning harakat faolligini oshirishga qaratilgan dolzarb masalalar bo'yicha muntazam ravishda ilmiy izlanishlarni olib borish zarurligi ta'kidlanmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini takomillashtirish, bolalarning qiziqishi, iqtidori, ruhiy va jismoniy xususiyatlari rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. "Jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish"¹ kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Ushbu masalalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish, harakat faolligini maxsus mashqlar orqali rivojlantirish hamda kundalik hayotda zaruriy harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda harakat faolligini oshirish va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni olib borish soha olimlari va mutaxassislari oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son, 2018-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 30 sentabrdagi PQ-3955-son Qarori. Lex.uz. 1-bet

30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3955-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1-son "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-241-sonli qarori hamda 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni va mazkur sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning: «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy – ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyalash masalalariga oid qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha A.N. Livitskiy, D.D. Sharipova, R.S. Salomov, D.N. Raxmatova, D.X. Umarov, N.M. Muhitdinova, L.Z. Xolmurodov²; maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bolalarda harakat ko'nikma va malakalarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish bo'yicha M.M. Masharipova, S.T. Islomova, N.N. Djamilova, T.S. Usmonxo'jayev, M.M. Nuriddinova, maktabgacha yoshdagi bolalarda gimnastik mashqlarni qo'llash yuzasidan M.N. Umarov, G.X. Xolboeva, M.Z. Jo'rayeva hamda boshqa mamlakatimiz olimlari va mutaxassislari tomonidan izlanishlar olib borilgan.³

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ruhiy rivojlanish jarayonlari va o'yinlarni bog'liqligi bo'yicha F.G. Frolov, G.P. Yurko, D.V. Mendjeriskaya, D.V. Xuxlaeva, N.T. Lebedeva, L.D. Glazrina; maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy rivojlanishida o'yinlarning ta'siri hamda harakatlanish faoliyati bolalarning muloqatchanligini rivojlantirish bo'yicha D.I. Gasanova, T.A. Semyonova, L.V. Kapilevich, V.I. Andreev, Y.N. Toskaya, T.I.

² Ливицкий А.Н. умумий тахрири остида. Мактабгача ёшдаги болалар жисмоний тарбиясининг назарияси ва методикаси. Дарслик. Т.: 1995.-. 458 б.; Шарипова Д.Д. Валеология асослари. Т.: 2011.-.226 б.; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 tom. Darslik. ITA-PRESS. Т.: -2014.-.220 б.; Raxmatova D.N. va bosh. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. Ch.: 2019.-.235 б.; Umarov D.X., Xolmurodov L.Z. Makabgacha ta'limda jismoniy tarbiya. Darslik. 2022..327 б.;

³ Машарипова М.И. Мактабгача тарбия муассасалари шароитида болаларнинг ҳаракат потенциалини мақсадли ривожлантириш технологияси. Пед.фан.бўй.фал.док.дисс. Т.: 2006.-.135 б.; Islomova S.T. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya. Т.: "Ilm Ziya" nash. 2006.-.148 б.; Джамилова Н.Н. Мактабгача таълим муассасаларида жисмоний тарбия.Т.: 2011.- 187 б.; Umarov M.N. Gimnastika. Toshkent 2015.-.400 б.; Усмонходжаев Т.С. ва бош Мактабгача таълим муассасаларида жисмоний тарбия. Т.: 2019. – .178 б.; Нуриддинова М.М. Мактабгача ёшдаги болаларда ҳаракат кўникма ва малакаларни шакллантиришда ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш методикаси. PhD. дис.... Чирчиқ 2020.- Б 57-63.; Холбоева Г.Х. Мактабгача таълим ташкилотларида болалар ҳаракат фаоллигини оширишда дастлабки гимнастика машғ'улотларини такомиллаштириш механизмлари. PhD. дис.автор. Ч.: – 2021. -.25 б.

Osokina, D.B. Elkonin va boshqa soha mutaxassislari tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilib chuqur o'rganilgan⁴.

Xorij olimlaridan S. Yilmaz, G.L.Lendret, O.P. Bauer, K. Stanberry, S.L.Crogh yirik motorika, ya'ni bolalarning katta motor qobiliyatlari va harakat faolligining umumiy rivojlanish jarayoniga ta'siri masalalarini⁵ S.X. Ballok, B.X. Djons, Dj. Gilkrist, S.V. Marshall, G.D.Myer, N.M Edvards, T.M Best kabi olimlar esa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmagan bolalar hech qachon harakat qobiliyatlari nuqtai nazaridan o'zlarining genetik salohiyatini to'liq rivojlantirmaydi hamda yuqori darajadagi harakat faolligi kuzatilmaydi, degan dalilni ilgari surgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash, bolalarni har tomonlama rivojlantirish hamda hayot uchun zarur bo'lgan dastlabki harakat ko'nikma va malakalari hamda jismoniy harakat faolligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash tizimida harakat faolligini oshirishga qaratilgan zamonaviy ishlanmalar ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan va joriy etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq VI/I.3. «O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini pedagogik texnologiyalar va dasturlarni ishlab chiqish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida maxsus mashqlar va harakatli o'yinlarni tizimli qo'llash orqali ularning harakat faolligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat tayyorgarligini takomillashtiruvchi maxsus vositalar orqali harakat ko'nikmalarini rivojlantirish;

5-6 yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda murakkab va o'zgaruvchan vaziyatlarda tana mushaklarini cho'zish va nafas olish mashqlaridan iborat maxsus tiklovchi mashqlarni qo'llash metodikasini ishlab chiqish;

⁴ Фролов В.Г. Юрко Г.П. Физкультурные занятия на воздухе с детьми дошкольного возраста. М.: 1983.-.247.с; Менджеричкая Д.В. Воспитателю о детской игре. М.: 1984.-.236 с.; Хухлаева Д.В. Методика физического воспитания в дошкольных учреждениях. М.: 1984.-.206 с.; Лебедева Н.Т. Двигательная активность в процессе обучения младших школьников М.: 1999.- 11 с.; Глазырина Л.Д. Физическая культура - дошкольникам. М.:1999.- 247 с.; Гасанова Д.И. Психотехнические игры как средство физического воспитания детей старшего дошкольного возраста. Авто...дисс. кад.пед.ноук. М.: 2000.-.25 с.; Семёнова Т.А. Воспитание ловкости у детей шестого года жизни в подвижных играх. М.: 2007.-.242 с.; Капилевич Л.В., Андреев В.И. Здоровье и здоровый образ жизни. Учебное пособие. - Томск: ТПУ, 2008. -102 с.; Тоцкая Е.Н. Направленное воздействие подвижных игр на развитие коммуникативных способностей детей старшего дошкольного возраста. Авто...дисс. кад.пед.ноук. М.: 2011.-.26 с. Осокина Т.И. Физическая культура в детском саду. М.: 2014.-.231 с.; Элконин Д.Б. Психология игры. 2014.-.208 с.

⁵ Bauer O.P. Outdoor and sports games in the professional training of specialists in physical culture of preschoolers. Avto...diss.PhD. 2011.-.28 p. Activities in Early Childhood Education Okul Öncesi Eğitimde Dış Mekanlar ve Dış Mekan Aktiviteler.A.:2018.-.323 p.; Stanberry K. Understanding Physical Development in Preschoolers. G.:2019.-.222 p.; Yilmaz S. Environment and Outdoor.

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining harakatlarni muvofiqlashtirish va maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va harakatli o'yinlarni integral qo'llash metodikasini ishlab chiqish;

5-6 yoshli bolalar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakat faolligini maxsus mashqlar vositasida oshirish modulini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayoni, o'yin va sayr faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida maxsus mashqlarni qo'llash asosida harakat faolligini oshirish uslubiyatini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rovnomalar, antropometriya, pulsometriya, pedagogik tadqiqot va matematik-statistik usullar tadqiqot jarayonida qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat tayyorgarligini takomillashtiruvchi maxsus vositalar (bayroqlar, gimnastika tayoqchasida burilishlar, kubiklarni ko'tarish, halqa va to'plar) orqali harakat ko'nikmalarini, bajarish vaqti (davomiyligini asta-sekin oshirish) hamda harakatlarni takrorlash sonini ko'paytirish hisobiga harakat faolligini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

5-6 yoshdagi bolalarning jismoniy harakatini tiklash hamda harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida, yosh xususiyatlari inobatga olingan holda murakkab va o'zgaruvchan vaziyatlarda tana mushaklarini cho'zish (statik, dinamik) va nafas olish mashqlaridan iborat maxsus tiklovchi (chuquroq va sekin, qorin, nafasni ushlab turish, ritmli nafas olish) mashqlarni har bir mashg'ulotga tizimli kiritish hisobiga harakatlarga tezkor moslashish imkoniyatlari oshirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining harakatlarni muvofiqlashtirish va maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda murakkab o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishga qaratilgan (maxsus to'plar, reaktiv yugurish, turli yuzali yugurish (qum, trava, beton) elementlari, murakkab koordinatsion harakat kabi) maxsus mashqlar va harakatli o'yinlarni integral qo'llash hisobiga koordinatsion qobiliyatlari rivojlantirilgan;

5-6 yoshli bolalar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini maxsus mashqlar vositasida oshirish moduli tarkibiga motivatsion, produktiv va reproduktiv darajadagi baholash komponentlarni kiritish hisobiga bolalarning kompetensiyaviy yondashuv va ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati oshiriladi;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogik kuzatuv, so'rovnomalar, amaldagi tadqiqotlar asosida yaratilgan texnologiyalar va pedagogik tadqiqotlardan olingan natijalarga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishda maxsus mashqlar majmuasini qo'llash mexanizmi va metodikasi barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilalar, turli ijodiy va sport markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llanilgan;

tadqiqotning nazariy ma'lumotlaridan pedagogika oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan

talabalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari hamda maktabgacha malaka oshirish institutlari xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida, ommaviy maktabgacha va oilaviy ta'lim amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotning izchil bajarilganligi, mantiqiy yondashuvga ega ekanligi, uslublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to'liq mos kelishi, ilmiy-uslubiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga va ularning mualliflari bo'lgan respublikamiz hamda xorijiy olimlarning ilmiy xulosalari va tavsiyalariga asoslanganligi, tadqiqot-sinov ishlarida olingan ma'lumotlar va natijalarning kompyuter texnikasining ma'lum dasturlaridan foydalanib matematik-statistik tahlil usullarida qayta ishlov berilganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy tavsiyalar maktabgacha ta'lim metodikasi va jismoniy tarbiyaning konseptual muammolarining yechimiga yo'naltirilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy qiymati maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikni oshirish borasida yaratilgan maxsus mashqlar majmuasi hamda ulardan foydalanish metodikasi jismoniy tarbiyaning va maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanish metodikasi jismoniy tarbiya metodikasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalaridan maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kurslari uchun o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza matnlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun o'quv-uslubiy adabiyotlar, metodik tavsiyalar va maqolalar tayyorlashda foydalangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni harakat faolligini oshirishda maxsus mashqlarni qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar asosida:

maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat tayyorgarligini takomillashtiruvchi maxsus vositalar (bayroqlar, gimnastika tayoqchasida burilishlar, kubiklarni ko'tarish, halqa va to'plar) orqali harakat ko'nikmalarini, bajarish vaqti (davomiyligini asta-sekin oshirish) hamda harakatlarni takrorlash sonini ko'paytirib qo'llash bo'yicha takliflar "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-557-raqamli guvohnomasi). Natijada 5-6 yoshli bolalarda harakat faolligi ko'rsatkichlari 9-10% ga rivojlanganligi kuzatilgan;

5-6 yoshdagi bolalarning jismoniy harakatini tiklash hamda harakatlanish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida, yosh xususiyatlari inobatga olingan holda murakkab va o'zgaruvchan vaziyatlarda tana mushaklarini cho'zish (statik, dinamik) va nafas olish mashqlaridan iborat maxsus tiklovchi (chuquroq va sekin, qorin, nafasni ushlab turish, ritmli nafas olish) mashqlarni har bir mashg'ulotga tizimli kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 19-fevraldagi 03-33-510-son

ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulot samaradorligi 8-9% ga oshgan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining harakatlarini muvofiqlashtirish va maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda murakkab va o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishiga qaratilgan (maxsus to'plar, reaktiv yugurish, turli yuzali yugurish (qum, trava, beton) elementlari, murakkab koordinatsion harakat kabi) maxsus mashqlar va harakatli o'yinlar majmuasi "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-293-raqamli guvohnomasi). Natijada 5-6 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarligi 12-13%ga yaxshilanishiga erishilgan.

5-6 yoshli bolalar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini maxsus mashqlar vositasida oshirish moduli tarkibiga motivatsion, produktiv va reproduktiv darajadagi baholash komponentlarni kiritish bo'yicha takliflar (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 19-fevraldagi 03-33-510-son ma'lumotnomasi). Natijada jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bo'yicha bolalarning harakat faolligini oshirish 10-11%ga takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 9 ta (5 ta respublika va 4 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat bo'lib, 137 sahifa matn, 19 ta rasm, 26 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining harakat faolligini rivojlantirishga doir ilmiy-uslubiy manbalar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning harakat faolligini rivojlantirishda amaliyotda qo'llanilayotgan vositalar va usullar, ularning

samaradorlik ko'rsatkichlari, shuningdek, ushbu yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tana massasining individual indeksleri tahlil qilinadi. Tahlil natijalari ortiqcha vaznga ega bolalar sonining salbiy tendensiyasini ko'rsatadi.

Jismoniy yuklamalarga adaptatsiya jarayonlarining yoshga bog'liqligi va ta'siri, mashg'ulot jarayonini boshqarishning asosiy tamoyillari asoslangan holda rejalashtirilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy harakat turlarini shakllantirish, doimiy faoliyatni ta'minlashda vosita ko'nikmalarini me'yorda rivojlantirish, ularning tajribasini kengaytirish, hayajon tuyg'ularini tarbiyalash va sezgirlik xususiyatlarini kuchaytirish hamda bolalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish masalalari ilmiy tadqiqotlarda alohida ta'kidlangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy o'sishi va ta'limining asosiy vazifalarini hal etishda ularning asosiy vosita mahoratini oshiradigan jismoniy faoliyat va harakatli o'yinlarni joriy etish tavsiya etiladi. Yurish va ochiq havoda o'yinlar vaqtida yuqori harakat faolligini o'z ichiga olgan mashqlar, o'yinlar va mashg'ulotlar bolalarning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning irodasini mustahkamlashga yordam beradi, jasorat va mustaqillikni shakllantiradi.

Harakatli o'yinlarni tanlash va ularni o'zgartirish bo'yicha to'g'ri yondashuv bolalarning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim va zarur jarayon ekanligi o'rganilgan adabiyotlar orqali tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uni tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo'yilgan muammolarni hal qilishda tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar manbalarini o'rganish va tahlil qilish, maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, pedagogik kuzatuv, matematik-statistik uslublari tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash usullari kabi usullaridan foydalanilganligi bayon qilinadi.

Tadqiqot 2022–2025 yillar davomida uch bosqichda amalga oshirildi. Har bir bosqichning maqsad va vazifalari tadqiqotning umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq belgilandi.

I-bosqich (2022 - 2023 yil). Ushbu bosqichda o'zbek va xorij olimlarining ishlari bo'yicha adabiyotlar tahlili, tajribani o'tkazilishiga tayyorgarlik jarayonlarini tashkil etish, vazifalar, tadqiqot bosqichlari va muddatlari, tadqiqotda qo'llaniladigan uslub va vositalar, pedagogik nazorat testlar mazmuni aniqlashtirildi.

II-bosqich (2023 - 2024 yil). Ushbu davr mobaynida nazorat va tajriba guruhlarida maxsus testlar yordamida o'tkaziladigan tadqiqotlarning dastlabki natijalari olinib, testlarning mohiyati va mazmuni, tajriba guruhida qo'llaniladigan eksperimental mashqlarning maqsadi va mazmuni haqida tushuntirish suhbatlari tashkil etildi. Tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

III-bosqich (2024 - 2025 o'quv yili). Bu bosqichda tajribada ishtirok etuvchi ikki guruhda rejalashtirilgan yakuniy testlar o'tkazildi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida tajribaviy natijalar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalar yuqori darajada bajarilgani qayd etilib, olingan natijalar amaliyotga tadbqiq qilindi.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat**

tayyorgarligi va uni takomillashtirish metodikasi” deb nomlangan uchinchi bobida, maktabgacha ta’lim tashkilotining 5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarining tajriba boshlanishidagi jismoniy tayyorgarlik darajasi va ularning rivojlanish dinamikasi atroflicha o’rganilgan. Shuningdek, ushbu yoshdagi bolalarning harakat faolligini rivojlantirishga qaratilgan mashg’ulotlar jarayonida qo’llaniladigan samarali vosita va usullar tizimi yuzasidan batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Bu bobda tajribaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashqlar, ularning mazmuni, amaliy qo’llanilishi va kutilgan natijalari ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqot tajriba va nazorat guruhleri uchun quyidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari orasidan ishtirokchilar tanlab olindi:

Buxoro shahridagi 19- va 47-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan jami 80 nafar bola (40 nafar o’g’il bola va 40 nafar qiz bola);

Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi 11- va 12-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan jami 68 nafar bola (36 nafar o’g’il bola va 32 nafar qiz bola);

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 1- va 36-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan jami 74 nafar bola (38 nafar o’g’il bola va 36 nafar qiz bola).

Umumiy hisobda 222 nafar 5-6 yoshli tarbiyalanuvchi tadqiqotda ishtirok etib, ular tajriba va nazorat guruhleri tarkibiga mos ravishda taqsimlandi.

Tadqiqot bosqichida olingan dastlabki natijalar 5-6 yoshli maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tezkor kuch, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi hamda qo’l mushaklari kuchi kabi muhim jismoniy sifatlarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko’rsatdi. Bu esa, mazkur yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun doimiy, bosqichma-bosqich va tizimli mashg’ulotlarni tashkil etish zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

1-jadval

BuxVMTTda tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli o’g’il bolalarning pedagogik tajriba boshida jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasi (n = 40)

№	Ko’rsatkichlar	NG (n=20) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	TG (n=20) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	t	p
1.	10 m masofaga yugurish, (s.)	3,57±0,51	14,2	3,65±0,65	15,3	0,47	>0,05
2.	Moksimon yugurish 3x5 m, (s.)	7,78±1,22	15,6	8,21±1,28	15,5	1,08	>0,05
3.	Turgan joydan uzunlikka sakrash, (sm.)	84,62±19,21	22,7	80,03±19,04	23,7	0,75	>0,05
4.	Turgan joydan yuqoriga sakrash, (sm.)	19,57±3,61	18,4	18,29±3,65	19,9	1,11	>0,05
5.	Tennis to’pini uloqtirish, (m.)	10,28±1,84	17,9	9,52±1,89	19,8	1,28	>0,05


Izoh: s-soniya, sm-santimetr, m-metr.

Buxoro viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlari 5-6 yoshli o’g’il bolalarning turgan joydan yuqoriga sakrash pedagogik testlash natijalari quyidagicha bo’ldi: o’tkazilgan pedagogik testlashda turgan joydan yuqoriga sakrash bo’yicha nazorat guruhi o’g’il bolalarining o’rtacha natijasi tajriba avvalida 19,57±3,61 santimetrni tashkil etib, variatsiya ko’rsatgichi esa 18,4 % bo’lganligini, hamda turgan joydan yuqoriga sakrash nazorat testi bo’yicha tajriba guruhi o’g’il bolalarda o’rtacha natija tajriba avvalida 18,29±3,65 santimetrni tashkil etib, variatsiya ko’rsatgichi 19,9 %,

$t=1,11$ ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi $p>0,05$ ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari Buxoro viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 5-6 yoshli o'g'il va qiz bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjud emasligini ko'rsatdi ($p > 0,05$).

O'lchov natijalari tahliliga ko'ra, tana og'irligi, tana uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi hamda yurak qisqarish soni kabi asosiy antropometrik va fiziologik ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha qiymatlar tajriba va nazorat guruhlarida deyarli bir xil ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar dastlabki bosqichda ishtirokchilarning umumiy jismoniy rivojlanish darajasi o'zaro tengligini tasdiqlaydi.



1-rasm. BuxVMTTd tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli qiz bolalarning pedagogik tajriba boshida jismoniy rivojlanish darajasi dinamikasi

Ushbu natijalar Buxoro viloyatidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini yanada samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha metodik tadbirlar, maxsus mashg'ulotlar majmuasi hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi faoliyatlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, kuzatilgan holatlar asosida natijalarni chuqurroq tahlil qilish, ularning davomiyligini aniqlash va bu boradagi o'zgarishlarni uzoq muddatli kuzatuvlar orqali baholash kelgusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

2-jadval

QashVMTTd tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli o'g'il bolalarning pedagogik tajriba boshida jismoniy rivojlanishi darajasi dinamikasi ($n=36$)

№	Ko'rsatkichlar	NG ($n=18$) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	TG ($n=18$) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	t	p
1.	Tana og'irligi, (kg)	19,12±2,04	10,6	19,31±2,09	10,8	0,27	>0,05
2.	Tana uzunligi, (sm)	110,41±15,98	14,4	114,89±16,01	13,9	0,84	>0,05
3.	Ko'krak qafasining aylanasi, (sm)	53,44±5,66	10,5	53,31±5,59	10,4	0,06	>0,05
4.	YuQS (daq.zar.)	100,45±10,95	10,9	104,17±10,86	10,4	1,02	>0,05

Izoh: kg-kilogram, sm-santimetr, daq-daqiqa, zar-zarba.


Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli o'g'il bolalarning tana og'irligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot boshida $19,12 \pm 2,04$ kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 10,6 %

bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli o'g'il bolalarining tana o'g'irligi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tadqiqot boshida $19,31 \pm 2,09$ kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq variatsiya koeffitsiyenti 10,8%, $t=0,27$ ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi $p>0,05$ ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi 11-12-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari orasida 5-6 yoshli o'g'il va qiz bolalarning jismoniy rivojlanish darajasida tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq kuzatilmaganligini ($p > 0,05$) ko'rsatdi.

Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga oid dastlabki tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 5-6 yoshli qiz bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari orasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Xususan, tezlik, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi, tezkor kuch va qo'l kuchi kabi jismoniy sifatlar ko'rsatkichlari ikki guruhda deyarli bir xil bo'lib chiqdi. O'tkazilgan statistik tahlil natijalari farqlarning ishonchlilik darajasi pastligini tasdiqladi.

Shu bois, kelgusi bosqichlarda bu yoshdagi qiz bolalarning jismoniy rivojlanish samaradorligini oshirish maqsadida maxsus mashqlar asosida tuzilgan tizimli mashg'ulot dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.



2-rasm. QashVMTTd tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli qiz bolalarning pedagogik tajriba boshida jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasi

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan 5-6 yoshli o'g'il bolalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari orasida sezilarli statistik farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Jumladan, tezlik, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi, tezkor kuch hamda qo'l mushaklari kuchi bo'yicha olingan ko'rsatkichlar ikki guruhda deyarli bir xil bo'ldi.

O'tkazilgan statistik tahlillar farqlarning ishonchlilik darajasi past ekanligini ko'rsatdi. Bu holat, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish samaradorligini oshirish uchun maxsus mashg'ulotlar asosida tuzilgan metodik yondashuvlarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Navoiy viloyati maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari 5-6 yoshli o'g'il bolalarning tajriba va nazorat guruhlaridagi jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi dastlabki natijalarga teng bo'ldi:

Navoiy viloyati maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash, aniqlik va qo'l kuchining rivojlanish dinamikasini aniqlovchi turgan joydan og'irligi 150 grammli tennis to'pini uloqtirish testi bo'yicha nazorat guruhi o'g'il bolalarda o'rtacha natija tadqiqot boshida $10,25 \pm 1,55$ metrni tashkil etib, variatsiya koeffitsiyenti 15,1 % bo'lganligini, hamda turgan joydan og'irligi 150 grammli tennis to'pini uloqtirish nazorat testi bo'yicha tajriba guruhi o'g'il bolalarda o'rtacha natija tadqiqot boshida $9,73 \pm 1,52$ metrni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq variatsiya koeffitsiyenti 15,6 %, $t=1,04$ ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi $p>0,05$ ga teng ekanligini ko'rsatdi. (3-jadvalga qarang).

3-jadval

NavMTTda tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli o'g'il bolalarning pedagogik tajriba boshida jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasi ($n=38$)

№	Ko'rsatkichlar	NG ($n=19$) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	TG ($n=19$) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	t	p
1.	10 m masofaga yugurish, (s.)	$3,59 \pm 0,50$	13,9	$3,68 \pm 0,62$	16,8	0,49	$>0,05$
2.	Moksimon yugurish 3x5 m, (s.)	$7,79 \pm 1,26$	16,1	$8,29 \pm 1,26$	15,2	1,22	$>0,05$
3.	Turgan joydan uzunlikka sakrash, (sm.)	$85,96 \pm 17,95$	20,8	$80,05 \pm 17,98$	22,4	1,01	$>0,05$
4.	Turgan joydan yuqoriga sakrash, (sm.)	$19,45 \pm 3,59$	18,4	$18,22 \pm 3,58$	19,6	1,05	$>0,05$
5.	Tennis to'pini uloqtirish, (m.)	$10,25 \pm 1,55$	15,1	$9,73 \pm 1,52$	15,6	1,04	$>0,05$

Izoh: s-soniya, sm-santimetr, m-metr.


Uzoq muddatli kuzatuvlar, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va individual rivojlanish ko'rsatkichlarini batafsil o'rganish kelgusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash va ularning salomatligini mustahkamlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy faoliyatga bo'lgan biologik ehtiyoj yuqori bo'lishi bilan birga ota-onalarning e'tiborsizligi sababli har doim ham bu ehtiyoj to'liq qondirilmasligi harakat faolligining pasayishiga olib keladi. Ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali bolalardagi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida "Ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik" tuzilmasini amaliyotga tatbiq etdik (3-rasmga qarang).

Tuzilmada quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- Ota-onalar bilan hamkorlikda metodik ta'minotni ishlab chiqish;
- Ertalabki badantarbiya mashqlarini tashkil etish orqali bolalarning harakat faolligini oshirish hamda jismoniy rivojlanishiga yordam berish;

- Bolalarda jismoniy faollikka bo'lgan ehtiyojni va jismoniy mashqlarga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish;
- Harakatli o'yinlar va maxsus jismoniy mashqlar orqali bolalarning harakat faolligi hamda salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilash.




3-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirish va sog'lom rivojlanishini ta'minlashda MTT hamda ota-onalarning o'zaro hamkorligi bo'yicha tashkiliy-pedagogik tuzilma.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy faollikni oshirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy usullar va metodlarni ishlab chiqish, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu yoshdagi bolalarda jismoniy faoliyatga bo'lgan biologik ehtiyoj yuqori bo'lishi va bu ehtiyoj har doim ham to'liq qondirilmasligi, bolalarning turli elektron qurilmalardan muntazam foydalanishi, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uchun yetarli shart-

sharoitlarning yaratilmaganligi sababli ularning harakat faolligini pasayishiga olib keladi.

Ushbu salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida biz “Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini maxsus mashqlar vositasida oshirish moduli”ni amaliyotga tadbiq etdik (4 -rasmga qarang).



4-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini maxsus mashqlar vositasida oshirish moduli

Ushbu modulimizning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirish orqali ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini hamda salomatligini yaxshilash, jismoniy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishni inobatga olib, maktabgacha yoshdagi bolalarni maxsus mashqlar orqali harakat faolligini oshirish deb belgilab oldik.


Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgilab oldik: maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirish orqali ularning umumiy jismoniy rivojlanish holatini yaxshilash, harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, harakatga bo'lgan qiziqishi hamda sog'lom turmush tarziga asos yaratishdan iborat.

Ushbu modulni amaliyotga tatbiq qilish natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat faolligiga bo‘lgan ehtiyoj va jismoniy mashqlarga bo‘lgan qiziqish ortadi, umumiy harakat faolligi oshadi, jismoniy rivojlanish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasi ko‘tarilib, salomatlik holati yaxshilanadi va sog‘lom turmush tarziga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mashqlar bajarilish tempini o‘zgartirish bilan birga ko‘p takrorlangan asosiy mashqlar jismoniy rivojlanishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

4-jadval

Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat tayyorgarligi takomillashtiruvchi mashqlar majmuasi

Mashqlar mazmuni	Takrorlashlar soni	Mashq
Oyoqlar juft holatda, qo‘llarda bayroqlarni ushlab olamiz, 1-qo‘llarni oldinga cho‘zing, 2-qo‘llarni teppaga ko‘taring, 3- yana qo‘llar oldinga, 4- dastlabki holat.	6 - marta	
Ikki qo‘l bilan tayoqni ushlab teppaga ko‘taramiz va tizzada o‘tirib olinadi, 1- tanani o‘ng tomonga aylantiramiz; 2-tanani tanani chap tomonga aylantiramiz.	To‘xtamasdan har tomondan 4 marta	
Oyoqlar yelka kengligida, ikkala qo‘lda ham kubiklarni ushlab olamiz, 1-oldinga egilib, qo‘llarni orqa tomonga ko‘tarib olamiz; 2-dastlabki holatga qaytamiz.	6 marta.	
Oyoq juft holatda, halqa ikki qo‘l bilan ushlanib, belga ushlanadi. 1- o‘tirish; 2- dastlabki holat.	6 marta	
Tik turgan holda oyoqlar juft holatda, to‘pni qo‘lda ushlab olamiz. 1 - qo‘llarimizni oldinga cho‘zamiz; 2 - yuqoriga ko‘taramiz; 3 - oldinga cho‘zamiz; 4- teppaga ko‘taramiz.	6 marta	

Nafasni tiklash uchun mashqlar

1. Faol yurish, asta-sekin qadamlarni sekinlashtirib, nafas olish ritmini pasaytirish.

2. Oyoqlar yelkalar kengligida. Barmoqlar uchiga ko‘tarilib, qo‘llarni yuqoriga ko‘tarish (nafas olish). Boshlang‘ich holatga qaytish (nafas chiqarish).

3. Barmoqlar uchiga ko‘tarilib, qo‘llarni yuqoriga ko‘tarish (nafas olish). So‘ng tana oldinga egilib, qo‘llarni bo‘sh holatda pastga tushirish (nafas chiqarish).



5-rasm. Nafasni tiklash uchun mashqlar

Mashg‘ulotni oddiy dam olish mashqi bilan yakunlaymiz: chuqur nafas olib, “Harbiy tik turish” holatiga o‘tamiz va barcha mushaklarni 5-10 soniya davomida

taranglashtiramiz. So'ngra "Erkin" buyrug'i bilan tanani bo'shashtirib, nafasni chiqaramiz. Bu mashqni 3 marta takrorlaymiz.

Dissertatsiyaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda maxsus mashqlar va harakatli o'yinlarni qo'llash samaradorligini aniqlash bo'yicha pedagogik tajriba natijalari tahlili" deb nomlangan to'rtinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkilotining 5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojlanish dinamikasi atroflicha o'rganilib, ushbu yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda samarali vosita va usullar (pedagogik tajriba) qo'llanishi natijalari keltirilgan.

5-jadval

BuxVMTTda tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli o'g'il bolalarning pedagogik tajriba oxirida jismoniy tayyorgarlik darajasi dinamikasi (n=40)

№	Ko'rsatkichlar	Sinov vaqti	NG (n=20) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	TG (n=20) $\bar{X} \pm \sigma$	V%	t	p
1.	10 m masofaga yugurish, (s.)	T.B.	3,57±0,51	14,2	3,65±0,65	15,3	0,47	>0,05
		T.O.	3,58±0,49	13,6	3,29±0,31	9,4	2,23	<0,05
2.	Moksimon yugurish 3x5 m, (s.)	T.B.	7,78±1,22	15,6	8,21±1,28	15,5	1,08	>0,05
		T.O.	7,70±1,25	16,2	7,03±0,69	9,8	2,09	<0,05
3.	Turgan joydan uzunlikka sakrash, (sm.)	T.B.	84,62±19,21	22,7	80,03±19,04	23,7	0,75	>0,05
		T.O.	87,98±18,67	21,2	98,49±10,09	10,2	2,21	<0,05
4.	Turgan joydan yuqoriga sakrash, (sm.)	T.B.	19,57±3,61	18,4	18,29±3,65	19,9	1,11	>0,05
		T.O.	19,61±3,68	18,7	21,66±2,27	10,4	2,12	<0,05
5.	Tennis to'pini uloqtirish, (m.)	T.B.	10,28±1,84	17,9	9,52±1,89	19,8	1,28	>0,05
		T.O.	10,32±1,91	18,5	11,47±1,34	11,6	2,20	<0,05

Izoh: s-soniya, sm-santimetr, m-metr.

Buxoro viloyati MTT da tarbiyalanuvchi o'g'il bolalarning turgan joydan yuqoriga sakrash nazorat testi bo'yicha tadqiqot oxiriga kelib natijalari quyidagicha bo'ldi: nazorat guruhi o'g'il bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tajriba oxirida 19,61±3,68 santimetrni tashkil etib, variatsiya ko'rsatgichi 18,7 % bo'lganligini, hamda turgan joydan yuqoriga sakrash nazorat testi bo'yicha tajriba guruhi o'g'il bolalarda ishlab chiqilgan metodikamizni qo'llagandan so'ng o'rtacha natija tajriba oxiriga kelib 21,66±2,27 santimetrni tashkil etdi, variatsiya ko'rsatgichi 10,4 %, t=2,12ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi p<0,05 ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi nisbattan yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.


Nazorat guruhi ishtirokchilarida esa natijalardagi o'zgarishlar kam bo'lib, ularning rivojlanish darajasi uncha yuqori emasligi aniqlandi. Shu bilan birga, tajriba guruhi natijalari statistik tahlil asosida ishonchli ekanligi tasdiqlandi.

Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumani maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari orasida 5-6 yoshli qiz bolalarning 3x5 metr masofaga maksimal yugurish nazorat testi natijalari tajriba so'ngida quyidagicha bo'ldi:

Nazorat guruhi qiz bolalarida ushbu test bo'yicha o'rtacha natija 7,98±1,40 soniya bo'lib, variatsiya koeffitsienti 17,5% ni tashkil etdi.

Tajriba guruhi qiz bolalarida esa, ishlab chiqilgan metodika qo'llanilgach, o'rtacha natija 7,16±0,69 soniyaga yaxshilandi va variatsiya koeffitsienti 9,6% ga kamaydi.

Statistik tahlil natijasida t qiymati 2,10 ga teng bo'lib, ishonchlilik darajasi $p<0,05$ ekanligi aniqlandi. Bu esa metodikaning natijalari yuqori ishonchlilikka ega ekanligini ko'rsatadi.



